



## O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK XATOLAR: MUAMMO VA YECHIM

**Azimova Ziyoda Ergashevna  
Artikova Muhayyo Botiraliyevna  
Qodirov Valijon Abdurahmanovich  
Хасанов Шаробидин Азамович  
Муқаддас Тожибоева  
Абдурахимовна**

**Andijon davlat pedagogika instituti  
o'qituvchilari**

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqola o'qituvchi faoliyatida uchraydigan pedagogik xatolarni o'rGANISH va ularni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan. Unda pedagogik xatolarni tahlil qilishning dolzarbligi, ularning sabablarini aniqlash, ta'lif tizimini takomillashtirish va o'qituvchilarni malakali ravishda tayyorlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Xatolarni tizimli ravishda o'rGANISH va bartaraf etish uchun zamonaviy pedagogik, psixologik va metodik yondashuvlar tavsiya etilgan. Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy sifatlari, pedagogik xatolar va ularning oqibatlari hamda ta'lif jarayonida yuzaga keladigan xatolarning turli ko'rinishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik xato, o'qituvchi faoliyati, ta'lif sifati, innovatsion texnologiya, metodik yondashuv, baholash, ta'lif tizimi, kasbiy salohiyat, pedagogik malaka, ta'lif jarayoni.

**Аннотация.** Данная научная статья посвящена изучению педагогических ошибок в работе учителя и их устранению. Рассматривается актуальность анализа педагогических ошибок, выявления их причин, совершенствования системы образования, компетентной подготовки учителей. Для систематического изучения и устранения ошибок рекомендуются современные педагогические, психологические и методические подходы. Также были проанализированы личностные качества учителя, педагогические ошибки и их последствия, а также различные формы ошибок, встречающихся в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** педагогическая ошибка, деятельность учителя, качество образования, инновационные технологии, методический подход, оценка, образовательная система, профессиональный потенциал, педагогическая квалификация, образовательный процесс.

**Annotation.** This scientific article is devoted to the study of pedagogical errors in the work of a teacher and their elimination. The relevance of the analysis of pedagogical errors, identification of their causes, improvement of the education

system, competent training of teachers is considered. Modern pedagogical, psychological and methodological approaches are recommended for a systematic study and elimination of errors. Also analyzed were the personal qualities of the teacher, pedagogical errors and their consequences, as well as various forms of errors encountered in the educational process.

**Key words:** pedagogical error, teacher's activity, quality of education, innovative technologies, methodological approach, assessment, educational system, professional potential, pedagogical qualification, educational process.

Pedagogik faoliyat har bir jamiyatda bilimli avlodni shakllantirish va taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda markaziy o'rinn tutadi. O'qituvchining professional faoliyati orqali nafaqat bilimlar uzatiladi, balki yosh avlodning axloqiy va madaniy qadriyatlari ham shakllanadi. Shu sababli, o'qituvchi faoliyatida uchraydigan pedagogik xatolarni o'rganish va ularni bartaraf etish masalasi nafaqat o'qituvchi, balki butun ta'lim tizimi uchun muhimdir. Ushbu muammoning tadqiq etilishi va hal qilinishi, avvalo, ta'lim sifatini oshirishga, so'ngra esa jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyatda xatolarni tadqiq etishning dolzarblii bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi:

- birinchidan, ta'lim sifatini oshirish bugungi kunda global jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ko'rilmoxda. Pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli amalgalashirilishi, avvalo o'qituvchining bilim, malakasiga, uning didaktik va psixologik qobiliyatlariga bog'liqdir. Agar o'qituvchi faoliyatida xatoliklarga yo'l qo'yilsa, bu nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi, balki o'quvchilarining o'zlashtirish darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- ikkinchidan, XXI asr raqobatbardosh avlodni shakllantirishni talab etmoqda.

#### **Psixologik sabablar:**

- o'qituvchida o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining pastligi. Bu emotsional muvozanatsizlik yoki stress holatlariga sabab bo'lishi mumkin;
- o'quvchilar bilan psixologik aloqani o'rnata olmasligi. Masalan, o'quvchilarining ehtiyojlari va qibiliyatlarini inobatga olmaslik;
- o'quvchilarining motivatsiyasini noto'g'ri baholash yoki ularga noto'g'ri rag'batlantiruvchi yondashish.

#### **Itimoiv sabablar:**

- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe farqlari. Bu, ayniqsa, turli madaniy yoki iqtisodiy muhitdan kelgan o'quvchilar bilan ishlashda namoyon bo'ladi;
- jamiyatdagi ta'limga nisbatan yondashuv va ijtimoiy stereotiplar. Masalan, ayrim mavzular yoki kasblarga nisbatan past darajadagi qiziqish;
- o'qituvchi iamozaidagi hamkorlik yetishmoychiligi va boshqaruvdagi nosozliklar

#### **Tashkilotchilik sabablar:**

- o'quv dasturlari va metodik tavsiyalarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;
- o'qituvchi uchun ta'lim vositalari va texnologiyalarining yetishmasligi;
- ta'lim jarayonini rejalashtirishdagi kamchiliklar. Masalan, darsning noto'g'ri tashkil etilishi yoki vaqtini noto'g'ri taqsimlash.

Zamonaviy o‘quvchi nafaqat an’anaviy bilimlarga, balki mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarga ega bo‘lishi kerak. O‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi xatolar esa o‘quvchilarning bu imkoniyatlarni to‘liq rivojlantirishiga to‘sinqlik qilishi mumkin. Shuningdek, pedagogik xatolar, o‘quvchilarning psixologik holatiga ham ta’sir o‘tkazib, ularning o‘z-o‘ziga ishonchini yo‘qotishiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

### **1-rasm. Pedagogik xatolarning sabablari.**

1-rasmda ko‘rsatib o‘tilganidek, pedagogik xatolar bir qator omillar bilan bog‘liq. Psixologik sabablar orasida o‘qituvchining o‘zini boshqarish qobiliyatining zaifligi, stress yoki emotsiyal muvozanatsizlik holatlari muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning ehtiyojlarini noto‘g‘ri baholash va ular bilan psixologik aloqani o‘rnata olmaslik pedagogik jarayonga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy omillardan esa o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy farqlar, ta’limga nisbatan stereotipler va jamoada hamkorlikning yetishmovchiligi pedagogik xatolar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etishda rejalarshirishdagi kamchiliklar, metodik tavsiyalarning samarali emasligi va ta’lim vositalarining yetishmasligi ham pedagogik xatolarni keltirib chiqaradigan muhim omillardandir<sup>1</sup>.

Mazkur mavzuning jamiyatdagi ahamiyati alohida ta’kidlanishi lozim. Sifatli ta’lim nafaqat – o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida pedagogik xatolarni oldini olish va bartaraf etish jamiyatning ta’limga bo‘lgan ishonchini oshiradi, shuningdek, bilimli va kompetent avlodni shakllantirishga zamin yaratadi. Shuningdek, pedagogik xatolarni ilmiy-texnik nuqtayi nazardan tadqiq etishning ahamiyati juda katta. Bu jarayon orqali o‘qituvchilar faoliyatini tahlil qilishda yangi metodologik yondashuvlar ishlab chiqiladi. Masalan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi psixologik muloqotni yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqamli ta’lim vositalarining samaradorligini oshirish yoki o‘qituvchilar uchun maxsus trening va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish mumkin. Ushbu yondashuvlar nafaqat o‘qituvchilarning professional malakasini oshiradi, balki ta’lim jarayonining umumiy sifatini yaxshilaydi.

Pedagogik faoliyatda xatolarni o‘rganish va tahlil qilish nafaqat muammo sabablarini aniqlash, balki ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishga ham xizmat qiladi. Xatolarni tizimli ravishda tahlil qilish – o‘qituvchi uchun professional o‘sish maydonini kengaytiradi, uning didaktik yondashuvlarini takomillashtiradi va zamonaviy ta’lim talablariga moslashish imkoniyatini yaratadi. Xususan, “innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni aniqlash orqali ularni samarali qo‘llash yo‘nalishlarini belgilash mumkin”<sup>2</sup>.

Pedagogik xatolar o‘qituvchining ta’lim va tarbiya jarayonida yo‘l qo‘ygan xatti-harakatlari yoki qarorlari bo‘lib, ular ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, o‘quvchilarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga to‘sinqlik

<sup>1</sup> Сиденко А. С. Педагогическая мастерская: от теории к практике проектно-ориентированного обучения //Инновационные проекты и программы в образовании. – 2008. – №. 1– С. 103-112.

<sup>2</sup> Редлих С. М., Козырева О. А. Современные методы продуктивной педагогики и проблема формирования культуры самостоятельной работы педагога //Профессиональное образование в России и за рубежом. – 2011. – №. 3. – С. 50-62.

qilishi mumkin. Bunday xatolar o‘qituvchining yetarli tayyorgarligi yoki tajribasining yo‘qligi, shuningdek, noto‘g‘ri metodik yondashuvlar natijasida yuzaga keladi. Ushbu xatolar faqat ta’lim sifati pasayishiga emas, balki o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarning murakkablashishiga ham olib keladi.

Bunday xatolar turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Metodik xatolar o‘qituvchining dars metodlarini noto‘g‘ri tanlashida, o‘quvchilarning bilim darajasini to‘g‘ri baholay olmasligida yoki ta’lim mazmunini yuzaki shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Tartib-intizomga oid xatolar esa o‘quvchilarga haddan tashqari qattiq yoki aksincha, sust yondashuvda ifodalanadi<sup>3</sup>. Bu jarayonda intizomni ta’minlashda noxolis yondashuv ham muhim xato hisoblanadi. Muloqotdagi xatolar o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatishda yo‘l qo‘ylgan kamchiliklarda, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olmaslikda ko‘rinadi. Zamonaviy ta’limda texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish yoki ularga yetarli e’tibor bermaslik texnologik xatolarni yuzaga keltiradi.

Pedagogik xatolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etish o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘quv jarayonini psixologik va metodik yondashuvlar bilan to‘ldirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan xatolarni tizimli o‘rganish va ularni bartaraf etish ta’lim sifatini oshirishga, shuningdek, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida sog‘lom hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, o‘qituvchilarning tayyorgarligiga va ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar bilan boyitilgan metodlarni joriy etish zarurdir.

O‘qituvchilarning professional faoliyatida yuzaga keladigan xatolarni tahlil qilish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va kelgusida bu xatolardan qochish yo‘llarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi faoliyatida uchraydigan xatolar turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin va ular o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilariga ta’sir ko‘rsatadi. Bu xatolarni chuqur o‘rganish uchun avvalo ularning amaliy misollarini ko‘rib chiqish va o‘qituvchining shaxsiy sifatlari bilan bog‘liqligini aniqlash zarur.

O‘quv jarayonida yuzaga keladigan xatolar turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarni faqat bilim darajasiga qarab baholash va boshqa shaxsiy sifatlarini inobatga olmaslik keng tarqalgan xatolardan biridir. Bu holat ko‘pincha o‘quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlarini noto‘g‘ri baholashga olib keladi. Yana bir misol, darsni rejorashtirishdagi kamchiliklardir: darsning maqsadlari aniq belgilab olinmagan bo‘lsa yoki metodlar mavzuga mos kelmasa, bu nafaqat o‘quvchilarning ta’lim olishiga, balki o‘qituvchining nufuziga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi tomonidan noxolis munosabat namoyon etilishi, masalan, ayrim o‘quvchilarga nisbatan haddan tashqari e’tibor qaratib, boshqalarini e’tiborsiz qoldirish, sinfdagi muvozanatni buzishi mumkin.

O‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik xatolar o‘rtasidagi bog‘liqlik ham muhim tahlilni talab qiladi. O‘qituvchining shaxsiy xususiyatlari, masalan, yetarli darajada sabr-toqatl bo‘lmashligi yoki o‘zini tuta bilmashligi, o‘quv jarayonida muhim

<sup>3</sup> Seifried J. et al. Teachers’ strategies for handling student errors—the contribution of teacher training programs //Fehler—Ihre Funktion im Kontext individueller und gesellschaftlicher Entwicklung. – 2015. – C. 177-188.

pedagogik xatolarga olib keladi. Tajribaning yetishmasligi, stressni boshqara olmaslik, o‘ziga nisbatan ishonchszilik kabi sifatlar ham xatolar sabablaridan biri hisoblanadi. Masalan, tajribasi kam bo‘lgan o‘qituvchi murakkab vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilishda qiynalishi mumkin, bu esa o‘quvchilar bilan muloqotda muammolarni keltirib chiqaradi<sup>4</sup>. Bundan tashqari, o‘qituvchining yetarlicha empatiyaga ega emasligi, ya’ni o‘quvchilarni tinglash va tushunish qobiliyatining pastligi, ularda ishonchni yo‘qotishiga olib keladi.

Yana bir ko‘rinish, o‘quv jarayoniga texnologiyalarni noto‘g‘ri integratsiya qilish bilan bog‘liq xatolardir. Masalan, texnologiyalardan foydalangan holda mavzularni tushuntirishda o‘qituvchining o‘zi yetarli darajada malakaga ega bo‘lmasa, bu jarayon qiyinchiliklarga olib keladi va o‘quvchilarning materialni tushunishini yanada qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni individual ravishda kuzatish va ularga moslashtirilgan yondashuvni qo‘llay olmaslik ham xatolardan biridir. Har bir o‘quvchi turli usullarda ta’limni o‘zlashtiradi, lekin o‘qituvchining ularning ehtiyojlarini hisobga olmasligi ta’lim samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Shaxsiy sifatlar va xatolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan yana bir jihat o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishga bo‘lgan qobiliyatidir<sup>5</sup>. O‘z ishini tahlil qila olmaydigan o‘qituvchi o‘z xatolarini qayta-qayta takrorlashi mumkin. Masalan, dars davomida yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib, ulardan tegishli xulosa chiqarish o‘rniga, o‘qituvchi ularga e’tiborsiz bo‘lsa, bu xatolarning davomiyligini ta’minlaydi.

Umuman olganda, o‘qituvchining faoliyatida uchraydigan xatolar va ularning sabablari chuqur tahlil qilinishi zarur. Bunda xatolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorlarligini oshirish, ularni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar faoliyatida o‘zlarini muntazam rivojlantirish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni kiritish pedagogik xatolarning kamayishiga va ta’lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

### **Xulosa va takliflar.**

**1. Pedagogik malaka va kompetensiyalarni oshirish.** Pedagogik xatolarni oldini olishning eng samarali yo‘li – o‘qituvchilarning malakalarini doimiy ravishda oshirishdir. O‘qituvchilar uchun turli treninglar, seminarlar va kurslar tashkil etilishi zarur. Ushbu faoliyatlar o‘qituvchilarga zamonaviy ta’lim metodlari va innovatsion texnologiyalarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi, bu esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va xatolarni kamaytirishda muhim omil bo‘ladi.

**2. Refleksiya va o‘ziga baholash jarayonlarini rivojlantirish.** O‘qituvchilarga o‘z pedagogik faoliyatlarini tahlil qilish va xatolarini aniqlash imkoniyatini berish kerak. Refleksiya va o‘ziga baholash jarayonlarini doimiy ravishda o‘tkazish o‘qituvchilarga o‘z malakalarini takomillashtirishga yordam beradi va ta’lim jarayonidagi xatolarni kamaytiradi. O‘qituvchilarni o‘z faoliyatlarini baholash va o‘zgarishlarni amalga oshirishga undash kerak.

<sup>4</sup> Seifried J. et al. Teachers’ strategies for handling student errors—the contribution of teacher training programs //Fehler—Ihre Funktion im Kontext individueller und gesellschaftlicher Entwicklung. – 2015. – С. 177-188.

<sup>5</sup> Темина С. Ю. Профессиональные проблемы учителя и технология их решения на основе системной интеграции научных подходов //Актуальные проблемы психологического знания. – 2011. – №. 4. – С. 103-108.

**3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.** Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvlarini yangilash va takomillashtirishga yordam beradi. Raqamli platformalar, o‘quv vositalari va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim jarayonida yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi va o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berish imkoniyatini yaratadi.

**4. O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish va hamkorlikni rivojlantirish.** Pedagogik xatolarni oldini olish va ularni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashishning ahamiyati katta. O‘qituvchilar bir-birlarining tajribalari bilan o‘rtoqlashib, samarali uslublar va metodlarni qo‘llashda bir-birlariga yordam berishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, pedagogik xatolarni aniqlash va tuzatish imkoniyatlarini yaratadi.

**5. Ta’lim dasturlarini takomillashtirish va metodik qo‘llanmalardan foydalanish.** O‘qituvchilar uchun aniq metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi kerak. Ushbu qo‘llanmalar o‘qituvchilarga ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Shuningdek, ta’lim dasturlarini doimiy ravishda yangilab borish va ular bilan bog‘liq metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

**6. O‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ta’lim tizimini yaratish.** Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish juda muhimdir. Har bir o‘quvchining individual qobiliyatları va motivatsiyasi turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchun o‘qituvchilar o‘z yondashuvlarini shaxsiylashtirishga harakat qilishlari lozim. Bu, o‘z navbatida, xatolarning oldini olish va o‘quvchilarning muvaffaqiyatini ta’minlashga yordam beradi.

Pedagogik xatolarni bartaraf etish va oldini olish uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirishga, pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga, o‘z faoliyatlarini tahlil qilishga va tajriba almashishga undash zarur. Shuningdek, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun ta’lim dasturlarini va metodik yondashuvlarni takomillashtirish, o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish lozim. Bu orqali ta’lim sifatini yaxshilash, pedagogik xatolarni kamaytirish va o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga erishish mumkin.

### **Adabiyotlar ro’yhati**

1. YO‘LDOSHEV, Q. O. Z. O. Q. B. O. Y., et al. "Adabiyot." *Toshkent-2019*.
2. Qodirov, Valijon. "Reflections on the formation of reflexive abilities in preschool education." *Science and innovation* 2.B11 (2023): 150-153.
3. Kadirov, Valijon, and Dildora Abdullaevna. "FICTION IS A FACTOR IN THE FORMATION OF NATIONAL EDUCATION AND SPIRITUALITY IN CHILDREN." *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры* 2.3 (2022): 124-127.
4. Хасанов, Шаробидин Азамович. "ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБУЧЕНИЯ." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, SOCIOLOGY, HISTORY AND POLITICAL SCIENCE*. 2018.

5. Ibraimov, X., Z. Azimova, and Z. Otaboeva. "Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community." *Science and innovation* 2.B12 (2023): 108-113.
6. Азимова, Зиёда Эргашевна. "Олий ўкув муассасаси маънавий-маърифий ишларининг педагогик назария ва амалиётда тутган ўрни." *Современное образование (Узбекистан)* 2 (2018): 26-35.
7. Artikova, M. "DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS." (2021).
8. Artikova, Muhayo Botiralevna. "Experience In Developing Entrepreneurship Skills In Foreign Countries." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.7 (2019): 250-255.
9. Artikova, Muhayyo Botiralevna. "PECULIARITIES OF METHODICAL WORK IN PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL." *Science and Education* 2.1 (2021): 297-300.
10. Artikova, M. B. "THE FACTORS OF BRINGING CHILDREN UP IN THE MOOD OF MATERIAL AND SPIRITUAL INTEGRATED LIFE IN THE FAMILY (AS AN EXAMPLE OF PRIMARY SCHOOL AGE)." *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука* 6 (2018): 269-272.
11. Tojiboeva, Muqaddas, Nargiza Sattarova, and Nazokat Qanoatova. "Tradition In Abdulla Avloni's Poetry." *JournalNX* 7.11 (2021): 166-171.
12. Таджибаева, Муқаддас Абдурахимовна. "Традиционные образы в узбекской джадидской поэзии." *Проблемы востоковедения* 2 (56) (2012): 53-58.
13. Tojiboyeva, Ffd MUQADDAS, and Vositov Shavkatbek. "FOLLOW-UP, STABILITY, AND ARTISTIC DISCOVERY IN JADID LITERATURE." *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology* 17.6 (2020): 14576-14581.
14. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "TA'LIMIY O 'YINLAR MTT VA OILA HAMKORLIGINI MUSTAHKAMLASH VOSITASI SIFATIDA." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 87-93.
15. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "EKOLOGIK ONG VA AXLOQNING IJTIMOIY-EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 94-100.
16. Хасанов, Шаробидин, and Муқаддас Тоҷибоева. "ЖАДИДЧИЛИК ДАВРИ АДАБИЁТИДА МАЪРИФАТПАРVARЛИК ФОЯЛарНИНГ ИФОДАЛАНИШИ." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 101-106.
17. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "Pedagogik kadrlarni tayyorlashda sun'iy intellekt asosida interaktiv o 'quv muhitini tashkil etish." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 107-112.
18. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "MTTDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH VA BOLALAR NUTQINI O 'STIRISH YUZASIDAN MULOHAZALAR." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 113-117.